transmissiya zanjirining yo'nalishini konseptual asoslashda qo'llanildi.

Exchange Rate Stability = f (Liquidity, UZONIA, Policy Rate, Inflation, Credit Growth, Money Supply).

Inflation_t = α + β₁PolicyRate_t + β₂UZONIA_t + β₃Liquidity_t + β₄Credit_t + β₅ExchangeRate_t + ε_t

Ekonometrik modellashirish uchun zarur bo'lgan uzun va to'liq oylik vaqt qatorlari, masalan, UZONIAning kundalik tarixiy qatori ochiq shaklda mavjudligi cheklanganligi sababli, tadqiqotda sun'iy simulyatsiya qilingan ma'lumotlardan foydalanilmadi. Buning o'rniga Markaziy bankning rasmiy choraklik hisobotlarida e'lon qilingan aniq raqamlar asosida deskriptiv statistika, dinamik va institutsional tahlil usullari qo'llanildi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy bankning *Money Market and Liquidity Review 2026 Q1* hisobotiga ko'ra, 2026-yilning I choragida bank tizimidagi umumiy likvidlik darajasi oshib, tarkibiy profitsit holatida qoldi. Likvidlikning o'sishi, asosan, davlat byudjeti operatsiyalarining sezilarli darajada faollashuvi hamda muomaladagi naqd pulga bo'lgan mavsumiy talabning pasayishi bilan izohlanadi.

2026-yilning I choragida banklararo pul bozoridagi operatsiyalarning umumiy hajmi 163 trln so'mni, ya'ni choraklik yalpi ichki mahsulotning 36,4 foizini tashkil etdi. Ushbu operatsiyalarning taxminan 89 foizi overnight (bir kunlik) operatsiyalardan, 74 foizi esa REPO bitimlaridan iborat bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar banklararo bozorning qisqa muddatli likvidlikni qayta taqsimlashga yo'naltirilganini va bozor ishtirokchilarining o'z kundalik likvidlik pozitsiyalarini boshqarishda faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Markaziy bankning Herfindahl-Hirschman indeksi bo'yicha hisob-kitoblariga ko'ra, likvidlik qarz olish segmentida yuqori konsentratsiya darajasi saqlanib qolmoqda, bu bir nechta yirik bozor ishtirokchilarining likvidlikni qayta taqsimlashdagi yetakchi rolini aks ettiradi. Bunday yuqori konsentratsiya darajasi, bir tomondan, operatsion samaradorlikni oshirsa, boshqa tomondan, tizimli likvidlik risklarining ayrim yirik banklarga bog'liqligini kuchaytirishi mumkin. Bu esa makroprudensial nazorat nuqtai nazaridan alohida e'tiborni talab qiladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab majburiy zaxira bazasiga kiritiladigan majburiyatlar qamrov koeffitsiyenti 15 foizdan 20 foizgacha oshirildi. Ushbu o'zgarishning bank tizimiga ta'sirini yumshatish maqsadida xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha zaxira normativ stavkasi 9,5 foizdan 8,5 foizgacha pasaytirildi. 2025-yil davomida pul bozoridagi stavkalar ko'pchilik hollarda foiz koridori ichida shakllandi, biroq tarkibiy likvidlik profitsitining saqlanib qolishi sababli stavkalar koridorning quyi chegarasiga — depozit stavkasiga yaqinroq joylashish tendensiyasini namoyon qildi. Bu holat nazariy jihatdan kutilgan natija hisoblanadi: ortiqcha likvidlik sharoitida banklar qarz olishdan ko'ra, ortiqcha mablag'larni Markaziy bankka joylashtirishga ko'proq moyil bo'ladi, natijada banklararo stavkalar koridorning pastki chegarasiga tortiladi[3].

1-jadval

2024–2026-yillarda O'zbekiston pul bozorining asosiy ko'rsatkichlari[4]¹

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	2026-yil I chorak
Asosiy stavka, %	13,5	14,0	14,0
UZONIA, o'rtacha, %	≈13,0*	≈13,5–13,9*	13,7
Yillik inflyatsiya, %	9,8 dek.	7,3 dek.	7,3 fev.
Real YalIM o'sishi, %	6,5	7,7	7,6 yillik, kv.
Banklararo bozor hajmi	—	—	163 trln so'm, YalIMning 36,4%
Overnight operatsiyalar ulushi, %	—	—	≈89
REPO operatsiyalari ulushi, %	—	—	≈74
Depozit stavkasi, o'rtacha, %	—	17,2 dek.	—
Kredit stavkasi, o'rtacha, %	—	22,9 dek.	—

Markaziy bankning foiz koridori tizimi asosiy stavka atrofida yuqori chegara — doimiy asosda likvidlik berish stavkasi va quyi chegara — doimiy asosda likvidlikni jalb qilish (depozit) stavkasidan iborat bo'lib, banklararo bozor stavkalarining mazkur doiradan chetga chiqmasligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqori chegara banklar uchun Markaziy bankdan qisqa muddatli likvidlik olishning maksimal narxini, quyi chegara esa ortiqcha likvidlikni Markaziy bankka joylashtirishning minimal daromadlilikini belgilaydi.

1 Muallif ishlanmasi

2-jadval

Asosiy stavka, UZONIA va foiz koridori dinamikasi[5]²

Davr	Asosiy stavka, %	UZONIA, %	Spred: UZONIA – asosiy stavka, f.p.
2025-yil I chorak	13,5–14,0	≈13,5–14,0*	≈0
2025-yil II chorak	14,0	≈13,8–14,0*	≈-0,1...-0,2
2025-yil IV chorak	14,0	≈13,8–13,9*	≈-0,1...-0,2
2026-yil I chorak	14,0	13,7	-0,3

2026-yilning I choragida ortiqcha likvidlikni sterilizatsiya qilish maqsadida Markaziy bank haftalik o'rtacha 49,2 trln so'm hajmida 7 kunlik obligatsiyalarni tijorat banklari o'rtasida joylashtirdi. Natijada UZONIA o'rtacha 13,7 foiz darajasida shakllandi. Bu asosiy stavkadan atigi 0,3 foiz punktga past bo'lib, monetar signallarning bozorga yaqin va aniq uzatilganini ko'rsatadi. Bu holat H2 gipotezasini — UZONIANing asosiy stavkaga yaqinlashishi foiz kanali samaradorligini oshiradi, degan taxminni — empirik ravishda tasdiqlaydi.

INVEXI tahliliy markazining Markaziy bankning rasmiy *Monetary Policy Review 2026 Q1* hisoboti asosida tayyorlangan sharhiga ko'ra, 2026-yilning I choragi yakunida real asosiy stavka 6,4 foizga yetdi. Bu yil boshidagiga nisbatan 0,2 foiz punktga yuqori bo'lib, umumiy inflyatsiyaning pasayishi hisobiga yuzaga keldi. Real foiz stavkasining ijobiy va nisbatan yuqori darajada saqlanishi milliy valyutada jamg'armalarni rag'batlantirish va inflyatsion kutilmalarni langarlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega, chunki u milliy valyutadagi aktivlarning jozibadorligini oshiradi va shu orqali dollarlashuv darajasini cheklashga xizmat qiladi.

Bank tizimida kundalik o'rtacha likvidlik profitsiti 2026-yilning I choragida 55,4 trln so'mni tashkil etdi. Yuqori darajadagi tarkibiy profitsit sharoitida Markaziy bank UZONIANi asosiy stavkaga yaqin ushlab turish uchun faol sterilizatsiya siyosatini yuritdi. Bu esa H4 gipotezasida ko'rsatilgan holatning, ya'ni ortiqcha likvidlikning foiz koridori signal funksiyasi samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi ehtimolining amaliy asosga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Markaziy bankning faol instrumental javobi — 7 kunlik obligatsiyalar, keyinchalik esa REPO auksionlaridan foydalanish — mazkur ta'sirni amalda sezilarli darajada yumshatganini ko'rsatdi. Bu esa H1 gipotezasini tasdiqlaydi[6].

Monetar transmissiya kanallarining O'zbekiston sharoitidagi samaradorligi

Monetar transmissiyaning besh asosiy kanali — foiz stavkasi, kredit, valyuta kursi, aktivlar narxi va kutilmalar kanallari — O'zbekiston sharoitida turlicha samaradorlik darajasiga ega.

Foiz stavkasi kanali qisqa muddatli banklararo bozorda UZONIA darajasida nisbatan samarali ishlaydi, biroq uzoq muddatli kredit va depozit stavkalariga uzatilish darajasi nisbatan cheklangan. Bunga bank tizimidagi yuqori kredit riski mukofoti va raqobat muhitini yanada rivojlantirish zarurati ta'sir ko'rsatadi.

Kredit kanali O'zbekistonda alohida ahamiyatga ega, zero iqtisodiyotda bank kreditlashuvi asosiy moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Asosiy stavkaning yuqori darajada saqlanishi kredit o'sish sur'atlarini ma'lum darajada muvozanatlashtirgan bo'lsa-da, davlat dasturlari doirasidagi imtiyozli kreditlash hajmining saqlanib qolishi mazkur kanalning bozor mexanizmlari asosida ishlash xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Valyuta kursi kanali O'zbekistonda sezilarli ahamiyatga ega, chunki iste'mol savatining muhim qismi import mahsulotlari va import tarkibiy qismiga bog'liq tovarlardan iborat. 2025-yilda so'mning AQSH dollariga nisbatan mustahkamlanishi import narxlari orqali inflyatsiyaning pasayishiga sezilarli ijobiy hissa qo'shdi. Bu holat Markaziy bankning 2025-yil oxiridagi qator rasmiy bayonotlarida ham alohida ta'kidlangan.

Aktivlar narxi kanali O'zbekistonda shakllanish bosqichida bo'lib, kapital bozori chuqurligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud va aholining moliyaviy aktivlardagi jamg'armalari, asosan, bank depozitlarida mujassamlashgan. Shu bois mazkur kanal boshqa kanallarga nisbatan nisbatan pastroq samaradorlikni namoyon etadi.

Kutilmalar kanali so'nggi yillarda Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatini kuchaytirishi, muntazam matbuot anjumanlari va choraklik hisobotlarning ochiq e'lon qilinishi hisobiga mustahkamlanmoqda. Biroq inflyatsion kutilmalarning joriy inflyatsiyadan yuqoriroq saqlanib qolishi, Markaziy bankning 2025-yil oxiridagi bayonotlarida qayd etilganidek, mazkur kanal samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi[7].



3-jadval

Monetar transmissiya kanallari va ularning O'zbekistondagi samaradorligi[8]³

Kanal	O'zbekistondagi samaradorlik darajasi	Asosiy cheklovlar
Foiz stavkasi kanali	O'rta, qisqa muddatda yuqori	Depozit va kredit stavkalariga nisbatan sekin uzatilish
Kredit kanali	Yuqori	Imtiyozli kreditlash, davlat ishtiroki
Valyuta kursi kanali	Yuqori	Importga yuqori bog'liqlik, konvertatsiya bilan bog'liq omillar
Aktivlar narxi kanali	Past	Kapital bozorining yetarlicha chuqurlashmaganligi
Kutilmalar kanali	O'rta, kuchaymoqda	Inflyatsion kutilmalarning yuqori inersiyasi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, pul bozori likvidligidan milliy valyuta barqarorligigacha bo'lgan zanjir quyidagi konseptual modelga muvofiq ishlaydi:

Bank tizimi likvidligi → Markaziy bank likvidlik operatsiyalari → foiz koridori → UZONIA/REPO stavkalari → bank depozit va kredit stavkalari → monetar transmissiya → kredit, iste'mol, investitsiya va inflyatsion kutilmalar → inflyatsiya → valyuta bozoridagi talab va taklif → milliy valyuta barqarorligi.

2025-yil yakunida qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ushbu zanjirning amalda ishlayotganini tasdiqlaydi: yillik inflyatsiya 7,3 foizgacha pasayib, 2016-yil dekabridan beri eng past ko'rsatkichni qayd etdi, real YaIM o'sishi 7,7 foizni tashkil etdi, xalqaro zaxiralar 2025-yil dekabr holatiga 66,3 mlrd AQSH dollaridan oshdi, ayrim baholarga ko'ra esa 2026-yil fevral holatiga 75 mlrd AQSH dollarigacha yetdi. So'm esa AQSH dollariga nisbatan yil davomida mustahkamlanish tendensiyasini namoyon qildi. Bunday natijalar restriktiv monetar siyosat, nazorat ostidagi pul bozori likvidligi va foiz koridorining barqaror ishlashi o'rtasidagi uzviy aloqadan dalolat beradi.

Shu bilan birga, milliy valyuta barqarorligini faqat nominal almashuv kursi bilan cheklab bo'lmaydi. Real foiz stavkasining ijobiy darajada saqlanishi — 2026-yilning I choragida 6,4 foiz — milliy valyutadagi jamg'armalarning jozibadorligini oshirdi. Bu holat bank tizimidagi mijoz depozitlarining 2025-yil davomida 35,2 foizga o'sib, 417,3 trln so'mga, ya'ni taxminan 33,2 mlrd AQSH dollari ekvivalentiga yetganida ham o'z aksini topdi. Depozitlarning jadal o'sishi milliy valyutaga nisbatan ishonchning mustahkamlanishi va dollarlashuv darajasining nisbiy pasayishi tendensiyasini ko'rsatadi[9].

4-jadval

Pul bozori barqarorligi va milliy valyuta barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi indikatorlar[10]⁴

Indikator	2025-yil yakuni	Izoh
Yillik inflyatsiya	7,3%	2016-yil dekabridan beri eng past ko'rsatkich
Real YaIM o'sishi	7,7% Q4, y/y	Investitsiya va eksport hisobiga
Xalqaro zaxiralar	>66,3 mlrd AQSH dollari	Oltin narxining o'sishi hisobiga qo'shimcha o'sish
Bank tizimi depozitlari	417,3 trln so'm, +35,2%	Milliy valyutaga ishonchning ortishi
Eksport	≈33,4 mlrd AQSH dollari, +23%	Tashqi talabning mustahkamlanishi
Real asosiy stavka, 2026-yil I choragi	6,4%	Yil boshiga nisbatan +0,2 f.p.

2026-yil 16-iyuldan boshlab Markaziy bank ortiqcha likvidlikni so'rib olishning asosiy instrumenti sifatida 7 kunlik REPO auksionlarini joriy qildi va avvalgi 7 kunlik Markaziy bank obligatsiyalarini ushbu mexanizm bilan to'liq almashtirdi. Markaziy bankning rasmiy bayonotiga ko'ra, ushbu qaror Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRR) hamda xalqaro OG Research maslahat tashkilotining tavsiyalari asosida qabul qilingan.

Yangi tizimda REPO bitimlarida garov sifatida ishlatiladigan obligatsiyalarning qiymati Markaziy bank tomonidan daromadlilik egri chizig'i (yield curve) asosida belgilanadi, shuningdek, garovga qo'yiladigan obligatsiyalarning ikkinchi oyoq (second leg) hisob-kitobidan kamida besh taqvim kuni oldin muddati tugashi bo'yicha talab bekor qilindi. Bundan tashqari, REPO auksionlari orqali sotib olingan obligatsiyalarning bitim muddati davomida ikkilamchi bozorda savdo qilinishiga qo'yilgan cheklovlar ham olib tashlandi.

Ushbu institutsional o'zgarishning iqtisodiy mohiyati shundaki, obligatsiyalarga nisbatan REPO mexanizmi likvidlikni boshqarishning yanada egiluvchan va bozor sharoitlariga moslashuvchan instrumenti hisoblanadi. REPO stavkalari kundalik talab va taklif asosida shakllanib, garovli operatsiya sifatida kredit riskini kamaytiradi

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi

va ikkilamchi bozor likvidligini oshirish imkonini beradi. Nazariy jihatdan, bunday o'tish quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Pul bozori likvidligi: REPO auksionlari obligatsiyalarga nisbatan ko'proq moslashuvchan bo'lib, likvidlikni kundalik asosda aniqroq sozlash imkonini beradi. Bu esa likvidlik profitsitining tebranishlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

UZONIA: REPO stavkasining asosiy stavkaga yaqinroq shakllanishi kutilmoqda, chunki garovli operatsiyalar kredit riskini kamaytirib, stavkalar spredini toraytiradi.

Foiz koridori: koridorning signal funksiyasi kuchayishi kutiladi, chunki REPO stavkalari bozor sharoitlarini tezroq aks ettiradi.

Banklararo stavkalar: ikkilamchi bozor cheklovlarining olib tashlanishi banklararo operatsiyalarning likvidligini oshiradi va ular o'rtasidagi farqni kamaytiradi.

Monetar transmissiya: REPO bozorining chuqurlashuvi monetar signallarning bank depozit va kredit stavkalariga uzatilish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank kreditlari va depozitlari: garov bazasining kengayishi va ikkilamchi bozor likvidligining oshishi banklarning aktivlarni boshqarish samaradorligini oshiradi, bu esa bilvosita kredit resurslarining ko'payishiga xizmat qilishi mumkin.

Milliy valyutaga ishonch: monetar siyosat operatsion mexanizmining xalqaro andozalarga moslashtirilishi va shaffoflikning oshishi investorlar hamda aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inflyatsiya va valyuta kursi: transmissiya samaradorligining oshishi, o'z navbatida, inflyatsion kutilmalarni langarlashga va valyuta bozoridagi ortiqcha tebranishlarni kamaytirishga ko'maklashadi[11].

Tadqiqot natijalarini zamonaviy monetar nazariyalar bilan taqqoslash ularning O'zbekiston sharoitidagi tatbiq etilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Taylor qoidasi (Taylor Rule) nuqtai nazaridan, Markaziy bankning 2025-yil davomida asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlashi inflyatsiyaning 5 foizlik maqsadli darajadan sezilarli yuqoriligini hisobga olgan holda restriktiv reaksiya funksiyasiga mos keladi. Inflyatsiyaning 2025-yil dekabrda 7,3 foizgacha pasayishi esa stavkani saqlab turish siyosatining muntazam samara berayotganini ko'rsatadi, garchi inflyatsiya maqsadli darajaga yanada yaqinlashish imkoniyatini saqlab qolayotgan bo'lsa-da.

Fisher effekti (Fisher Effect) nuqtai nazaridan, 2026-yilning I choragida real asosiy stavkaning 6,4 foizgacha oshishi nominal stavkaning barqaror saqlanishi fonida inflyatsiyaning pasayishi natijasida real foiz stavkasining ijobiy va oshib borayotgan trayektoriyasini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, milliy valyutadagi aktivlarning jozibadorligini oshiradi va Fisher gipotezasiga muvofiq uzoq muddatda inflyatsion kutilmalarning pasayishiga xizmat qiladi[12].

Foiz stavkasi kanali nazariyasi (Interest Rate Channel) nuqtai nazaridan, tadqiqot UZONIA va asosiy stavka o'rtasidagi torayib borayotgan spredni — 2026-yilning I choragida atigi -0,3 f.p. — kanal samaradorligining oshishi sifatida baholaydi. Biroq depozit va kredit stavkalariga uzatilishdagi kechikish hamda pass-through koeffitsiyentining birdan past bo'lishi kanal zanjirining ikkinchi bosqichida bank tizimi darajasida transmissiyani yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Monetar transmissiya mexanizmi (Monetary Transmission Mechanism) nazariyasi umumiy nuqtai nazardan, O'zbekistonda foiz stavkasi va valyuta kursi kanallari nisbatan kuchli, kredit kanali o'rta, aktivlar narxi kanali esa nisbatan pastroq samaradorlikda ishlayotganini ko'rsatadi. Bu natija ko'plab o'tish iqtisodiyotlari (transition economies) bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan umuman mos keladi: bank tizimi ustunlik qiladigan moliya tizimlarida (bank-based financial systems) kapital bozoriga asoslangan transmissiya kanallari odatda nisbatan sustroq shakllanadi.

Inflyatsiyani targetlash nazariyasi (Inflation Targeting) nuqtai nazaridan, Markaziy bankning 2020-yildan buyon izchil ravishda inflyatsiyani 5 foizga tushirishga qaratilgan restriktiv siyosati va shaffof kommunikatsiya amaliyoti — muntazam choraklik hisobotlar hamda matbuot anjumanlari — rejimning institutsional jihatdan mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, inflyatsiyaning maqsadli darajadan 2 foiz punktdan ortiq yuqori bo'lib qolishi mazkur rejim samaradorligini yanada oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ochiq iqtisodiyot monetar siyosati (Open Economy Monetary Policy) nazariyasi nuqtai nazaridan, O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi savdo va pul o'tkazmalariga yuqori darajada bog'liqligi — 2026-yilning I choragida 3,8 mlrd AQSH dollari remittans tushumi va yillik 13 foizlik o'sish — valyuta kursi kanalining alohida ahamiyatini kuchaytiradi. Shu bois Markaziy bank monetar siyosat qarorlarida nafaqat ichki inflyatsion bosimlarni, balki tashqi iqtisodiy sharoitlarni, jumladan, jahon tovar bozorlaridagi narx tebranishlari va mintaqaviy geosiyosiy risklarni ham hisobga olishi muhim[13].



XULOSA VA TAKLIFLAR

2024–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida pul bozori likvidligi, foiz koridori va monetar transmissiya samaradorligining milliy valyuta barqarorligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, xususan, 2025-yilda asosiy stavkaning 14 foiz darajasida restriktiv tarzda saqlanishi, 2026-yil yanvarida majburiy zaxira bazasining kengaytirilishi va, ayniqsa, 2026-yil iyulida 7 kunlik REPO auktsionlarining joriy etilishi monetar siyosatning operatsion mexanizmi xalqaro andozalarga izchil yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi.

Pul bozori likvidligining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2026-yilning I choragida bank tizimi tarkibiy likvidlik profitsiti sharoitida faoliyat yuritdi. Banklararo bozor operatsiyalari hajmi 163 trln so'mni, ya'ni choraklik YaIMning 36,4 foizini tashkil etdi, operatsiyalarning 89 foizi overnight, 74 foizi esa REPO ko'rinishida amalga oshirildi. Markaziy bank haftalik o'rtacha 49,2 trln so'm hajmida 7 kunlik obligatsiyalarni joylashtirish orqali ortiqcha likvidlikni faol sterilizatsiya qildi, natijada UZONIA o'rtacha 13,7 foiz darajasida, ya'ni asosiy stavkadan atigi 0,3 foiz punkt past darajada shakllandi. Bu ko'rsatkich monetar signallarning banklararo bozorga uzatilish sifatining yuqoriligini tasdiqlaydi va tadqiqot doirasida ilgari surilgan H1 hamda H2 gipotezalarini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, monetar transmissiyaning keyingi bosqichlarida bank depozit va kredit stavkalariga uzatilish jarayoni nisbatan sekinroq va to'liq bo'lmagan shaklda kechayotgani aniqlandi. 2025-yil yakunida depozit stavkasi 17,2 foizni, kredit stavkasi esa 22,9 foizni tashkil etib, asosiy stavkadan mos ravishda 3,2 va 8,9 foiz punktga yuqori bo'ldi. Bu holat bank tizimidagi tarkibiy omillar, jumladan, yuqori kredit riski mukofoti, raqobat muhitini yanada rivojlantirish zarurati va imtiyozli kreditlash dasturlarining saqlanib qolishi transmissiya mexanizmi samaradorligiga ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Milliy valyuta barqarorligi nuqtai nazaridan, 2025-yil yakuniy ko'rsatkichlari — yillik inflyatsiyaning 7,3 foizgacha pasayib, 2016-yildan beri eng past darajani qayd etishi, real YaIMning 7,7 foizga o'sishi, xalqaro zaxiralarning 66 mlrd AQSH dollaridan oshishi va bank tizimi depozitlarining 35,2 foizga o'sishi — pul bozori barqarorligi bilan milliy valyutaga bo'lgan ishonch o'rtasidagi uzviy aloqani amalda tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. *Money Market and Liquidity Review 2026 Q1* [Elektron resurs]. — Tashkent, 2026. — URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/3914749/.
2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. *Reserve Requirements of Commercial Banks* [Elektron resurs]. — URL: <https://cbu.uz/>.
3. Uzbekistan Republican Currency Exchange (UZRVB). *Results of the Auction for the Placement of Central Bank Bonds with a Maturity of 7 Days on December 25, 2025* [Elektron resurs]. — Tashkent, 2025. — URL: <https://uzrvb.uz/>.
4. UzDaily.uz. *Uzbek Central Bank Replaces 7-Day Bonds With Repo Auctions* [Elektron resurs]. — 2026. — 18 July. — URL: <https://www.uzdaily.uz/en/uzbek-central-bank-replaces-7-day-bonds-with-repo-auctions/>.
5. INVEXI. *Uzbekistan's Monetary Policy in Q1 2026: Sustained Growth Amid Global Uncertainty* [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://invexi.org/press/uzbekistan-s-monetary-policy-in-q1-2026-sustained-growth-amid-global-uncertainty/>.
6. Trading Economics. *Uzbekistan Interest Rate* [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/interest-rate>.
7. Euronews. *Uzbekistan GDP Hits Record €123 Billion as Mirziyoyev Hails Reforms* [Elektron resurs]. — 2025. — 26 December. — URL: <https://www.euronews.com/>.
8. BusinessWire. *Uzbekistan, the Engine of Central Asia: GDP Above USD 145 Billion and Exports Rising to USD 33.4 Billion* [Elektron resurs]. — 2026. — 22 January. — URL: <https://www.businesswire.com/>.
9. International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: Staff Reports and Article IV Consultations* [Elektron resurs]. — 2025–2026. — URL: <https://www.imf.org/>.
10. World Bank. *Uzbekistan Economic Update* [Elektron resurs]. — 2025–2026. — URL: <https://www.worldbank.org/>.
11. Bank for International Settlements (BIS). *Central Bank Operating Frameworks and Collateral Policies* [Elektron resurs]. — 2024–2025. — URL: <https://www.bis.org/>.
12. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. *Macroeconomic Indicators of the Republic of Uzbekistan* [Elektron resurs]. — 2025–2026. — URL: <https://stat.uz/>.
13. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. *Macroeconomic Forecasts* [Elektron resurs]. — 2025–2026. — URL: <https://mineconomy.uz/>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100